



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-136-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli hamda 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Tuman hokimligi tomonidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli hamda 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorlariga asosan 2025-yil 1-va 3-chorak yakunlari bilan tuman mahalliy byudjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ajratilgan xarajatlardan tejalgan mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlash yuzasidan berilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli hamda 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorlariga *ilovaga* muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jamolova)ga va tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (T.Isaqov)ga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yo‘ldashev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi
VII-8-52-11-163-K/25-sonli hamda 2025-yil 12-noyabrdagi
VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-8-52-11-163-K/25-sonli qarorining **2-bandi, b-kichik bandi, 3-xatboshidagi**:
“600 000,0” raqami - “564 000,0” raqamiga o‘zgartirilsin.
2. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorining **1-ilovasidagi**:
 - **3-ustuni, 14-pozitsiyasidagi** “300 000,0” raqamini,
 - 6-ustuni, 14-pozitsiyasida** “245 000,0” raqami deb o‘qilsin;
 - **6-ustuni, 21-pozitsiyasidagi**:
“309 000,0” raqami - “250 000,0” raqamiga o‘zgartirilsin;
 - **6-ustuni, 22-pozitsiyasidagi** “148 000,0” raqamini,
 - 3-ustuni, 22-pozitsiyasida** deb o‘qilsin;
 - **5-ustuni, 23-pozitsiyasidagi** “52 000,0” raqamini,
 - 3-ustuni, 23-pozitsiyasida** deb o‘qilsin.